



ISLOM MA'RIFATI

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining
ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali





ISLOM MA'RIFATI

№4
2023

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining
ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali





Muassis:

**Imom Buxoriy nomidagi
Toshkent islom instituti**

TAHRIR HAY'ATI:

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR
O'zbekiston musulmonlari idorasi
raisi, muftiy. O'zbekiston xalqaro
islom akademiyasi faxriy doktori

Muzaffar KOMILOV
Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Davronbek MAXSUDOV
Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Uyg'un G'OFUROV
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ilhom BEKMIRZAYEV
Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Ashirbek MO'MINOV
Tarix fanlari doktori, professor (L.N. Gumilev
nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti)

Rashid ZOHIDOV
Filologiya fanlari doktori, professor

Nurboy JABBOROV
Filologiya fanlari doktori, professor

Ne'matullo MUHAMEDOV
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Qo'ldosh PARDAYEV
Filologiya fanlari doktori (DSc)

Ahmad Sa'd DAMANHURIY
Ilohiyot fanlari doktori

Shovosil ZIYODOV
Tarix fanlari doktori (DSc)

Saidjamol MASAYITOV
Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Saidahmadxon G'AYBULLAYEV
Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Abdurasul ABDULLAYEV
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari
bo'yicha qo'mitaning 2024-yil 19 fevraldagi
03-07/819-sonli xulosa xatiga asosan
tayyorlandi.

MUNDARIJA

ISLOM HUQUQI

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR.	
Fiqh va fatvo tizimining muhim bosqichlari va ularning rivojlanishi.....	3
Mavjuda RAJABOVA.	
Imom Abu Yusufning "Xaroj" asari – Islom huquqiga oid noyob manba.....	8
Yahyo ABDURAHMANOV.	
Fatvo tushunchasi va fatvo chiqarilishining ijtimoiiy omillari hamda sabablari tahlili	14
Alijon RAVSHANOV.	
Murobaha savdo bitimining fiqhiy asoslari.....	21

ISLOM VA JAMIYAT

Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV.	
Tuluniylarning Misr sivilizatsiyasida tutgan o'rni.....	28
Alisher ABDULLAYEV.	
Toshkent xattotlik maktabi va uning vakillari...37	

ISLOM AQIDASI

Soatmurod PRIMOV.	
Imom Abu Hanifaga nisbatan murjiiylik iddaosiga munosabat.....	43

QUR'ONSHUNOSLIK

Abdumalik EGAMOV.	
Tafsir ilmining rivojlanish tarixi.....	50
Jahongir NE'MATOV.	
Qur'ondagi to'xtash belgilari va uning ahamiyati.....	57

HADISSHUNOSLIK

Shukurillo UMAROV.	
Movarounnahr hadis maktablari tarixi va tadrijiy bosqichlari	61
Yo'ldoshxon ISAYEV.	
Abu Hafs Bujayriyning shaxsiyati va hadis ilmiga oid merosining o'ziga xos jihatlari.....	65

MANBASHUNOSLIK

Muslim BAYMIROV.	
Abul Barakot Nasafiyning fiqhiy asarlari tahlili.....	69
Navro'zbek ABDUBANNOYEV.	
Abu Bakr Kalobodiyning hayoti va ilmiy merosi.....	74
Abdulatif ALLOQULOV.	
Imom Abu Hafs Nasafiyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi va sohaga doir yozgan asarlari tasnifi.....	78
Ne'matullo MUXAMEDOV.	
Abu Said Haysam ibn Kulayb Binkasiy Shoshiy va uning "Musnad" asari.....	82



Ne'matullo MUXAMEDOV

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA"
kafedrası mudiri, tarix fanlari doktori
e-mail:nematulloh@mail.ru*

**ABU SAID HAYSAM IBN KULAYB
BINKASIY SHOSHIY VA UNING
"MUSNAD" ASARI**

**ABU SAID HAYSAM IBN KULAYB
BINKASI SHASHI AND HIS WORK
"MUSNAD"**

Imom Shoshiy nomi bilan tanilgan Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy hadis ilmiga hissa qo'shgan olimlardan hisoblanadi. Uning nomi juda ko'p arab manbalarida ishonchli muhaddis sifatida e'tirof etiladi.

Uning to'liq ismi – Abu Said Haysam ibn Kulayb ibn Surayj [10:276; 2:479; 16:359; 11] (ba'zi manbalarda Shurayh [2:120, 827]) Ibn Ma'qil Shoshiy Binkasiy [3:58] Turkiy Ma'qiliy [4:12, 359] Adib [5:11-12] bo'lib, tug'ilgan yili manbalarda keltirilmagan. Ammo muhaddisning vafot etgan yili hijriy 335/947 deb aniq ko'rsatilgan [1:276; 8:11; 12:58].

Ma'lumki, hijriy uchinchi (milodiy IX) asrda Movarounnahr va Xurosonda hadis ilmi o'zining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan. Ushbu davr barcha manbalarda hadis ilmining oltin davri sifatida e'tirof etiladi.

Haysam ibn Kulayb Shoshiy aynan mana shu oltin davrda faoliyat ko'rsatdi. Manbalarda keltirilishicha, Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy ilm-ma'rifat o'rganish maqsadida Buxoro, Samarqand, Nasaf va Termiz kabi shaharlarda bo'lib, taniqli muhaddislardan saboq olgan. U o'z ilmini yanada boyitish maqsadida xorijiy yurtlarga ham safar qilgan. Jumladan, Balx shahrida Zakariyo ibn Yahyo ibn Asad Marvaziy, Iso ibn Ahmad Asqaloni [6:317, 479, 827],

Bag'dodda Abbos ibn Muhammad Duriy, Yahyo ibn Ja'far Zibirqon [2:479; 13:634; 16:359] va boshqalardan hadis ilmini o'rgangan.

Mashhur arab tarixchisi Shamsuddin Zahabiyning ta'kidlashicha, Haysam ibn Kulayb Shoshiy Iso ibn Asqaloni, buyuk muhaddis Abu Iso Muhammad Termiziy [5:312; 2:479; 14:827, 4:487], Zakariyo ibn Marvaziy, Abu Ja'far Muhammad ibn Ubaydulloh ibn Munodiy, Hamdon ibn Ali Varroq, Ahmad ibn Muloib, Muhammad ibn Iso Madoiniy, Abul Buxtariy, ibn Shokir, Ali ibn Sahl, Ibrohim ibn Abdulloh Qassor, Yahyo Abu Tolib, Abbos ibn Muhammad Duriy, Muhammad ibn Is'hoq Sog'oni va boshqalardan hadis eshitgan hamda o'rganagan [16:359].

Haysam ibn Kulayb Shoshiyning ilm bobida yetuk bo'lishiga oilasidagi ma'rifat o'chog'i katta ta'sir qildi. Ma'lumki, muhaddis yashagan davr hadis ilmining oltin asri bo'lishi bilan bir qatorda, Abu Hotam Roziy, Abbos ibn Muhammad Duriy, Solih Jazara, Abu Ya'lo Mavsiliy, Ibn Jorud kabi yirik muhaddislar Payg'ambar (*alayhissalom*)ning hadisi shariflarini to'plash va uni muhofaza qilishda o'zlarining kuchlarini ayamadilar.

Haysam ibn Kulayb Shoshiy yashagan davrda Samarqand, Buxoro va Termiz ilm-ma'rifat o'chog'i sifatida yuksak darajadagi ilmiy muhiti hamda olimlari bilan dong'i ketgan edi. Imom Shoshiy ilm olishni ilk bolalik chog'laridanoq boshlagan. Biror narsani istifoda etish niyatida u kishi olimlarning turli mavzudagi ilmiy majlislarida qatnashardi. Shuningdek, Iso ibn Ahmad Asqaloniyan hadis ilmini o'rganib, kun sayin uni boyitib borar edi. Asqaloni Imom Haysam ibn Kulayb Shoshiy vafotidan 67 yil oldin, ya'ni 268-yili vafot etdi. Kulayb Shoshiy esa hadis ilmi bilan shug'ullanishda davom etgan [8:13].

Haysam ibn Kulayb Shoshiy buyuk muhaddis Abu Iso Muhammad Termiziy va boshqa ko'plab muhaddislardan ham saboq olgan. Tarix fanlari doktori U.Uvatov yoz-

ganidek, "Imom Shoshiyning ustozlari juda ko'p bo'lib, ellikdan ortiq mashhur olimu mashoyixlardan hadis o'rgangani haqida aniq ma'lumotlar bor. Uning eng mashhur ustozlaridan termizlik buyuk muhaddis Abu Iso Muhammad Termiziy, makkalik Abulhasan Bag'aviylarni ko'rsatish mumkin" [15:48]. Haysam ibn Kulayb Shoshiy ustozlaridan eng mashhurlari:

1. Ibrohim ibn Abdulloh Qassor Abasiy Kufiy (vaf. 279/893).
2. Ahmad ibn Xozim ibn Abu G'araza Abu Amr Kufiy (vaf. 276/890).
3. Ahmad ibn Zuhayr Abu Haysama ibn Harb Abu Bakr Nasoiy Bag'dodiy (vaf. 279/893).
4. Ahmad ibn Ali ibn Fazl Abu Ja'far Xazzoz Muqriy (vaf. 286/899).
5. Ahmad ibn Muloib ibn Hayyon Abul Fazl Bag'dodiy (vaf. 275/889).
6. Hasan ibn Ismoil Abu Ya'lo Termiziy.
7. Hasan ibn Ali ibn Affon Omiriy Abu Muhammad Kufiy (vaf. 270/884).
8. Hamdun ibn Obid Abu Ja'far Farg'oniy. Ismi Ahmad bo'lgan (vaf. 270/884).
9. Hanbal ibn Is'hoq ibn Hanbal ibn Hilol ibn Asad Abu Ya'lo Shayboniy (vaf.

273/887).

10. Zakariyo ibn Yahyo ibn Asad Marvaziy. Ibn Uyaynaning shogirdi bo'lib, Buzurgvay nomi bilan mashhur bo'lgan (vaf. 270/884).
11. Abbos ibn Muhammad ibn Hotim Duriy, Abulfazl Bag'dodiy (vaf. 270/884).
12. Ali ibn Sahl ibn Mug'ira Bazzoz Bag'dodiy (vaf. 271/885).
13. Ali ibn Abdulaziz ibn Mirzabon, Abulhasan Bag'aviy (vaf. 286/899).
14. Umar ibn Hafs ibn Bistom ibn Amr Bohiliy, Abu Hafs Samarqandiy (vaf. 269/883).
15. Iso ibn Ahmad ibn Iso ibn Virdon Asqaloni Balxiy (vaf. 268/882).
16. Muhammad ibn Abdulloh ibn Sulaymon Xazramiy, Abu Ja'far Matin Kufiy (vaf. 277/891).
17. Muhammad ibn Ubaydulloh ibn Yazid, Abu Ja'far Bag'dodiy ibn Munodo (vaf. 272/886).
18. Muhammad ibn Ali ibn Abdulloh ibn Mihron, Abu Ja'far Varroq (vaf. 272/886).
19. Muhammad ibn Iso ibn Savra Abu Iso Termiziy (vaf. 279/892).
20. Muhammad ibn Yunus ibn Muso ibn Sulaymon Kadimiy, Basriy (vaf. 286/899).

Annotatsiya. Maqolada "Imom Shoshiy" darajasiga erishgan, ishonchli muhaddis Abu Said Haysam ibn Kulayb Binkasiy Shoshiy (vaf. 947) hayoti, tarbiya topgan muhiti, ilmiy faoliyati, yetishtirgan shogirdlari haqida so'z yuritildi.

Shuningdek muhaddis "Musnad" asarini yozishda e'tibor qaratgan jihat va xususiyatlar, uni yozishda tanlangan uslub, xat turi, qo'lyozma nusxalari va ular saqlanayotgan kutubxonalar, asar haqidagi olimlarning e'tiroflari kabilar tadqiq etilgan.

Abstract. The article was discussed about the life of Abu Said Haysam ibn Kulayb Binkasi Shoshi (d. 947), who attained the rank of "Imam Shoshi", the trusted muhaddith, the environment in which he was brought up, his scientific activities, and his students.

Also, the aspects and features that the muhaddis paid attention to when writing the work "Musnad", the style chosen for writing it, the type of letter, the manuscript copies and the libraries where they are kept, and the recognitions of the scholars about the work were researched.

Kalit so'zlar: Shosh, Binkas, Shoshiy, Binkasiy, Imom Shoshiy, hadis, muhaddis, qo'lyozma, "Musnad".

Key words: Shash, Binkas, Shashi, Binkasiy, Imam Shashi, hadith, muhaddith (commentator of hadith), manuscript, "Musnad".



21. Yahyo ibn Abu Tolib Ja'far ibn Zibirqoniy (vaf. 275/889) [12: 14-17, 359, 500, 298, 848, 342].

Yirik tarixchi Shamsuddin Zahabiy o'zining "Siyar a'lomin nubalo" ("Olijanob al-lomalar siyratlari") asarida "Haysam ibn Kulayb Shoshiy movarounnahrlik taniqli va ishonchli muhaddis, sayyoh (u juda ko'p shaharlarni kezgan), hofiz (o'sha davrda yigirma ming hadis yodlagan kishi "hofiz" nomi bilan ulug'langan), adib bo'lgan" [16: 359], deb yozgan.

Mashhur bibliograf Yoqut Hamaviyning xabar berishicha, Haysam ibn Kulayb Shoshiy imom, hofiz, sayyoh, muhaddis va adib bo'lgan. Adab ilmini Abu Muhammad Abdulloh ibn Muslim ibn Qutaybadan Bag'dodda tahsil olgan [12:500]. 14,17,58,500

Ba'zi manbalarda Shoshiyning adib deb ta'riflanishidan u adabiyotga oid asarlar ham yaratgan bo'lishi kerak degan xulosaga kelish mumkin. Kelajakda uning ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish bu masalaga aniqlik kiritadi [15: 49].

Muhammad ibn Tohir ibn Qaysaroniy qalamiga mansub "Tazkiratul huffoz" ("Hofizlar tazkirasi") asarida shunday yozgan: "Shoshiy – hofiz, ishonchli muhaddis – Abu Said Haysam ibn Kulayb ibn Shurayh ibn Ma'qil Ma'qiliy Shoshiy Movarounnahr muhaddisi bo'lib, "Musnadi kabir" asarining muallifidir" [14:848].

Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy ishonchli muhaddis va uning "Musnad" ("Musnadi Kabir") asari to'g'risida olimning nomi zikr etilgan aksariyat o'rta asr arab manbalarida e'tirof etilgan. Jumladan, foydalanilgan manbalarda Haysam ibn Kulayb Shoshiy "Imom, hofiz, ishonchli muhaddis va "Musnadi Kabir" muallifi" [5:317; 16:359; 12:500; 4:504; 2:173, 396, 403, 425, 479; 8: 5-18] sifatida yozilgan. Mashhur tarixchi Shamsuddin Zahabiy o'zining ko'p asarlarida Haysam ibn Kulayb Shoshiyning zikr etgan. Jumladan, "Tabaqotul muhaddisiyn" ("Muhaddislar tabaqalari") asarida quyida-

gicha yozgan: "Haysam ibn Kulayb Shoshiy hofiz bo'lib, "Musnad" asari muallifidir" [18:111].

Yuqoridagi fikrlar Haysam ibn Kulaybni Movarounnahr muhaddisi Imom Shoshiy sifatida butun dunyoga mashhur bo'lganini ko'rsatadi. O'rta asr arab mualliflari uning nomini "Imom Shoshiy" deya ehtirom bilan tilga olib, uni hadis ilmining buyuk allomalaridan bo'lganini alohida ta'kidlab o'tishgan.

Imom Shoshiy ko'p shogirdlar yetishtirgan. Ular orasida Abu Abdulloh Muhammad ibn Is'hoq Ibn Manda Isfahoniy, Abulqosim Ali ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Hasan Xuzoiy, Abu Nasr Buxoriy Kalaboziy, Mansur ibn Nasr ibn Abdurahim Samarqandiy kabi taniqli olimlar borligi qator manbalarda qayd etilgan [8:5-15;17:466].

Imom Shoshiy ilmiy faoliyatining aksar qismi Buxoro va Samarqand shaharlari-da kechgan, chunki uning ko'p shogirdlari mana shu shaharlarda yashaganlar [15:48]. Xususan, Haysam ibn Kulayb Shoshiydan alloma, shofei mazhabining shayxi Abu Bakr Muhammad ibn Abdulloh ibn Basir [17:466], imom, hofiz, sayyoh, muhaddis Abu Abdulloh ibn Manda [17:30], imom, hofiz Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Husayn ibn Hasan ibn Ali ibn Rustam Buxoriy Kalaboziy [17:94], Abulfazl Mansur ibn Nasr ibn Abdurahim Kog'aziy, Mansur ibn Nasr ibn Abdurrahim Samarqandiylar [14:848] hadis ilmini o'rganishgan va undan hadislar rivoyat qilishgan.

Shamsuddin Zahabiy Imom Shoshiyning hijriy 335 (milodiy 947) yilda Samarqandda vafot etganini aytgan, lekin bu xato. Aslida, Imom Shoshiy umrining oxirgi yillarida Buxoroda istiqomat qilib, keyin Shoshga qaytib kelgan va hijriy 335 (milodiy 947) yilda Shoshda vafot etganligi qator ishonchli manbalarda qayd qilingan [2:479; 6:246].

"Musnad" asari haqida

Imom Shoshiyning "Musnad" ("Musnadul Kabir") nomli asari hadislarga bag'ishlangan. Bu asarning yagona qo'lyozma nusxasi yaqin vaqtgacha Suriyaning Damashq shah-

ridagi “Zohiriya” kutubxonasida 277-raqam ostida saqlangan, keyinchalik Damashqdagi nodir qo'lyozmalar saqlanadigan “Maktabatul Asad” nomli kutubxonaga o'tkazilgan. 192 varaqdan iborat ushbu qo'lyozma hijriy 558 (milodiy 1163) yilda xattot Hofiz Ziyouddin Maqdisiy tomonidan nasx xatida ko'chirilgan. Ushbu nusxa muallif musnading bir juzi bo'lib, Tolha ibn Ubaydulloh (*roziyallohu anhu*) musnadi bilan boshlanib (U aslida kitobing yettinchi juz'i hisoblana-di), Abul Yusr (*roziyallohu anhu*)ning ba'zi musnadlari bilan tugaydi. (Bu kitobning o'n beshinchi juzi oxiridir).

Asarda quyidagi sahobalar musnadi keltirilgan:

Tolha ibn Ubaydulloh, Zubayr ibn Avvom, Sa'd ibn abu Vaqqos, Said ibn Zayd, Abdurrahmon ibn Avf, Abu Ubayda ibn Jarroh, Abdulloh ibn Mas'ud, Bilol ibn Raboh, Suhayb ibn Sinon, Xabbob ibn Arat, Ammor ibn Yosir, Abu Tolha Ansoriy, Abdulloh ibn Zayd ibn Horis, Abu Ayyub Ansoriy, Uboda ibn Somit, Muoz ibn Jabal, Ubay ibn Ka'b, Abu Usayd, Abul Yusr (*roziyallohu anhum*).

Asar nasx xatida yozilgan bo'lib, o'quvchiga osonlik tug'dirishi uchun asosiy ishlatiladigan so'zlar katta qilib yozilgan. Har bir hadisning boshlanish va tugallanishida alohida belgi qo'yilgan. Yuqorida Damashqdagi “Zohiriyya” kutubxonasida saqlanayotgan Hofiz Ziyouddin Maqdisiy [8:316, 1169-raqam] tomonidan ko'chirilgan nusxa Hofiz Ziyouddin Maqdisiy (569-643/1176-1174) tug'ilishidan oldin yozilgan. Uning ko'chirilgan sanasi ma'lum emas, lekin 558/1162-yildan oldin ko'chirilganligi tasdiqlanadi. Kitob oxirida uning yozilgan sanasi 558-hijriy yilning safar oyi deb keltirilgan. Har bir sahifada 19-30 satr mavjud.

Ushbu qimmatli asar Dubay shahridagi “Markazud da'va val irshod” a'zosi, yirik hadisshunos olim, doktor Mahfuzur Rahmon Zaynulloh tomonidan tadqiq etilib, bir necha jildda Madinai Munavvarada nashr etilgan [8:1-jild; 9:2-jild].

Doktor Mahfuz Rahmon Zaynulloh Imom

Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiyning “Musnad” asarini tadqiq etish natijasida ushbu kitob aynan Haysam ibn Kulayb Shoshiy qalamiga mansub ekanligini quyidagicha asoslab bergan:

1. Bu kitobda mavjud har bir hadisning isnodi Haysam ibn Kulaybning shayx(ustoz) laridan boshlangan, ya'ni Abbos ibn Muhammad Duriy, Abu Iso Termiziy, Abu Hotam Roziy, Iso ibn Ahmad Balxiy, Abdulloh ibn Muhammad ibn Shokir va boshqalar.

2. Kitobdagi hadislar isnodida Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiyning Abulqosim Ali ibn Ahmad Xuzo'iy, Abulqosim Ahmad ibn Abu Mansur Xaliliy kabi shogirdlarining ismi zikr etiladi [8:7-10]. Shuningdek, doktor Mahfuz Rahmon Zaynullohning ta'kidlashicha, bu asar asli 15 jilddan iborat bo'lib, bu o'rinda foydalanilayotgan “Musnad” kitobi 7jilddan boshlangan. Lekin beshinchi-oltinchi jildlarning oxirgi sahifalari topilgan. Undagi hadislarining hammasi xalifa Aliga tegishlidir. Asarning qolgan qismlari o'qib bo'lmaydigan darajaga yetib qolganligi uchun ularni tahrir qilish mushkul [8:29].

Islom olamida hadis ilmiga doir “Sahih”, “Musnad” va boshqa turdagi ko'plab asarlar yozilgan. Ularni yozishda mualliflar turli uslublarni qo'llashgan. Haysam ibn Kulayb Shoshiy ham “Musnad” asarini yozishda o'ziga xos yo'lni tutdi. Muallif hadisni to'g'ri yoki to'qimaligiga qarab emas, balki sahobalarga qarab joylashtirgan. Sahobalar har birining hadisini alohida-alohida qilib keltirgan.

Mazkur kitobning mavzusi uning “Musnad” nomidan ma'lum bo'lib, Haysam ibn Kulayb Shoshiy uni sahoba musnadlari bo'yicha tartiblagan va har bir sahoba rivoyat qilgan hadislarini jamlagan. “Musnad” kitobida hadislar quyidagi uslubda berilgan:

- Avval to'rt (chahoryor) xalifaning musnadlari, keyin jannat bashorati kelgan o'nta sahoba hamda boshqa sahobalarning hadislarini alifbo tartibida keltirilgan;

- muallif ba'zi hollarda sahobaning qisqacha tarjimai holini aytib o'tadi. Ba'zida esa



uning faqat ismi, kunyasi va nisbati bilan cheklanadi;

- sahobalarning isnodlarini ulardan rivoyat qilingan tartibga ko'ra joylashtirgan;

- hadislarni rivoyat qilishda ularning isnodlari, matnlari to'g'risida so'z yuritilmagan. Ayrim hollarda hadisning isnodi, matni to'g'risida to'xtalib o'tilgan;

- muallif hadislarni sahih yoki hasanga ajratmay, ularni aralash holda bergan. Barcha hadislarni aniq bayon etgan;

- ayrim hadislarning isnodi bir xil bo'lsa, hadis matnini keltirib, "mislahu" yoki "nahvahu", ya'ni "unga o'xshash", "unga tegishli" kabi so'zlarini keltirish bilan cheklangan.

Muhimi, Haysam ibn Kulayb Shoshiy "Musnadi Shoshiy" asarida hadislarni aniq bayon etgan. Rasululloh (*sollallohu alayhi vasallam*): **"Musulmonni so'kish fosiqlik, o'ldirish esa kofirlikdir"**, - dedilar. Demak, biror kishini haqorat va mazax qilish, ayniqsa, so'kish fosiqlik alomati ekani ushbu hadisdan yaqqol ko'rinib turibdi. Aynan shu mazmundagi hadislarni asardan keltirish mumkin. Jumladan, 602-hadisda shunday yozilgan: "Ahmad ibn Xozim, Avn ibn Solim, Abu Bakr Naqshaliy, A'mashdan, u Shaqiqdan, Shaqiq Abdullohdan Abdurahmon Safoga yuzlanib, **"Ey til, yaxshi narsalarni ayt, mukofot olasan. Pushaymon qilishingdan oldin jim tur, tinch bo'lasan"**. Shaqiq dedi: **"Bu sen eshitgan narsami?!"** U dedi: **"Rasululloh alayhissalomdan: "Odam bolalari-ning aksar gunohi tilidan bo'ladi"**, deganlarini eshitganman [8:78].

Haysam ibn Kulayb Shoshiy Imom Buxoriy, Termiziy, Asqaloniy va Ibn Hibbon kabi muhaddislar qatori o'zining "Musnad"ida ijtimoiy himoya masalalariga katta e'tibor qaratgani va bu borada naql qilingan sahih hadislarni jamlab keltirganini kuzatish mumkin. Ijtimoiy himoya masalalariga doir hadislar beva-bechoralarga har tomonlama ko'maklashish, qarindosh-urug'lar bir-biriga yordam qo'lini cho'zishga undaydi. Jumladan, Savod ibn Ali ibn Jobir Kufiy Namirning nabirasi Abu

Bakr Ayn Osim ibn Alidan, u Qaysdan, u Abu Husayndan, u Yahyo ibn Vassobdan, u Masruqdan, u Abdullohdan rivoyat qiladi: **"Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) dedilar: "(Ey) Bilol Alloh taolo (rizqni) ozaytirib qo'yishidan qo'rqmay xayri ehson qiling"** [8:388-391]. Ushbu hadisni Abu Bakr Ahmad ibn Amr ibn Abdulxoliq Bazzor Hofiz (vaf. 292/5) o'zining "Musnad" asarida Ibrohim ibn Ziyod Osim ibn Alidan kelgan rivoyat bilan keltirgan. Abulqosim Sulaymon ibn Ahmad Tabaroniy [11:1198] (vaf. 360/971) o'zining "Mu'jam" asarida Ja'far ibn Muhammad Firyobiydan kelgan sanad bilan naql qilgan. Tabaroniy naql qilgan hadisda, **Rasulullohga Bilol bir savat xurmo berayotganida: "Ey, Bilol, bu savatdagi nima?" dedilar. Bilol: "Men buni sizga atab terdim" deb javob beradi. Shunda Rasululloh: "Bilol jahannam olovidan bo'lgan bug'dan qo'rqmaysanmi? Alloh rizqni kamaytirishidan qo'rqmay xayri ehson qilgin"** dedilar [11:342]. Bu hadisning garchi lafzi boshqa bo'lgani bilan Shoshiyning "Musnad"ida keltirilgan hadis mazmuni bilan bir xildir. Bulardan tashqari ushbu hadisni Ahmad ibn Hajar Makkiy, Haysamiy, Shofeiyy (vaf. 973/1565) "Majma'uz zavoid" asarida, Jaloliddin Abdurahmon ibn Abu Bakr Suyutiy (vaf. 911/1505) "Jomeul masonid val marosil" asarida, Ahmad ibn Ali Mavsiliy (vaf. 307/919) "Musnad" asarida, Valiyuddin Muhammad ibn Abdulloh Xatib Tabriziy "Mushkotul masobih" asarida keltirganligi Haysam ibn Kulayb Shoshiyning "Musnad" asari qanchalar ishonchli ekanligidan darak beradi.

Ushbu hadisda beva-bechoralarga xayr-ehson qilish g'oyasi ilgari surilmoqda. Bu g'oya zamirida muhtoj insonlar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy va ma'naviy jihatdan yordam qo'lini cho'zish, eng muhimi, jamiyatda o'zaro qadr-qimmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik muhitini mustahkamlash kabi oliyjanob maqsadlar yotadi.

Xulosa qilib aytganda, Imom Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy qalamiga man-

sub "Musnad" kitobida insonlarni odob-axloq, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolatga chorlovchi hadislar bilan bir qatorda kishilarni qotillik, razolat, fitna-fasod, zulm kabi illatlardan qaytaruvchi hadislar berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Maqdisiy. Al-Ahodisul muxtora. – J. 1. – Bayrut: Dor Xozir, 1988.
2. Abu Bakr Muhammad ibn Abdulg'ani Bag'dodiy. Taqyid. – J. 1. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 1987.
3. Abu Bakr Muhammad ibn Abdulg'ani Bag'dodiy. Taqyid. – J. 2. – Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 1987.
4. Abu Bakr Muhammad ibn Abdulg'ani Bag'dodiy. Takmilatul ikmol. – J. 1. – Makka: Jomiatu Ummil quro, 1989.
5. Abdulkarim Sam'oniyy. Ansob. – J. 2. – Bayrut: Maktabatut tijoriy, 1980.
6. Abdulkarim Sam'oniyy. Ansob. – J. 7. – Bayrut: Maktabatut tijoriy, 1980.
7. Abdulkarim Sam'oniyy. Ansob. – J. 8. – Bayrut: Maktabatut tijoriy, 1988.
8. Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy. Musnad. – J. 1. – Madina: Maktabatul ulum val ahkam, 1990.
9. Abu Said Haysam ibn Kulayb Shoshiy. Musnad. – J. 2. – Madina: Maktabatul ulum val ahkam, 1990.
10. Abul Fazl Iyoz ibn Muso ibn Iyoz Yahsabiyy. Ikmol. – J. 4. – Bayrut: Dorul vafo, 1998. – S. 276.
11. Abulqosim Sulaymon ibn Ahmad Tabaroniy. Mu'jamut Tabaroniyil kabir. J. 1. – Qohira: Maktaba, 2008.
12. Yoqut Hamaviy. Mu'jamul buldon. – J. 1. – Bayrut: Dorul vafo, 1980.
13. Muhammad ibn Tohir ibn Qaysaroniy. Tazkiratul xuffoz. – J. 2. – Riyod: Dorus Sam'oniyy, 1994.
14. Muhammad ibn Tohir ibn Qaysaroniy. Tazkiratul xuffoz. – J. 3. – Riyod: Dorus Sam'oniyy, 1994.
15. Uvatov U. Imom Shoshiy hayoti va ijodiga oid ba'zi ma'lumotlar // Tarixiy manbashunoslik muammolari (Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari). – Toshkent: Universitet, 2003.
16. Shamsuddin Zahabiy. Siyar a'lomin nubalo. – J. 15. – Bayrut: Dorul fikr, 1413/1992.
17. Shamsuddin Zahabiy. Siyar a'lomin nubalo. – J. 16. – Bayrut: Dorul fikr, 1992.
18. Shamsuddin Zahabiy. Tabaqotul muhaddisin. – J. 1. – Ammon: Dorul Furqon, 1983.
19. CD-disk: Maktabatul alfiyya li sunnatini nabaviyya. – Ammon: "Turos" elektron-tadqiqot markazi, 1999.